

QO'SHMA KORXONALARDA MOLİYAVIY HISOBOTNI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH TARTIBI

Asror Maxmanazar o'g'li YUSUPOV

dotsent v.b.

INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE

TECHNOLOGY AND SCIENCE instituti

Toshkent, O'zbekiston

asroryusupov14011992@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada qo'shma korxonalarda moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/ IFRS) asosida tuzish, alohida moliyaviy hisobot va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning farqli jihatlarini hamda uning to'liq to'plami, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot, kapital o'zgarishi tarkibi to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish tartibi asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari(MHXS/ IFRS), moliyaviy hisobot, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot, kapital o'zgarishi tarkibi to'g'risidagi hisobot.

ПОРЯДОК ТРАНСФОРМАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ СОВМЕСТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ

Асрор Махманазар углы ЮСУПОВ

И.о. доцента

Институт INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE

TECHNOLOGY AND SCIENCE

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье обосновывается порядок составления финансовой отчетности в совместных предприятиях на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО/IFRS), рассматриваются различия между отдельной финансовой отчетностью и консолидированной финансовой отчетностью, а также излагается порядок формирования ее полного комплекта, включающего отчет о финансовом положении, отчет о совокупном доходе, отчет о движении денежных средств и отчет об изменениях в капитале.

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО/IFRS), финансовая отчетность, отчет о финансовом положении, отчет о совокупном доходе, отчет о движении денежных средств, отчет о составе изменений в капитале.

Buxgalteriya hisobotlarini xalqaro standartlarga o'tkazish yoki transformatsiya qilish aksiyadorlik jamiyatlarida hozirgi kunda juda dolzarb

masalalardan biri hisoblanadi. Buxgalteriya hisobotlarini transformatsiya qilish – bu O‘zbekiston Respublikasi qonun-qoidalariga asoslanib tayyorlangan buxgalteriya hisobotlari va hisob ma’lumotlarini BHXS asosida qayta guruhlash va hisobot moddalarini korrektirovka qilish jarayoni hisoblanadi.

Shuni aytish lozimki, transformatsiya qilishning yagona algoritmi mavjud emas va har bir holat bo‘yicha alohida yondashiladi. Bunga asosan hozirgi kunda transformatsiya qilishning bir qancha yo‘llari mavjud. Har qanday transformatsiya qiluvchi mutaxassis har bir jamiyat yoki tashkilot uchun mustaqil metod va bosqichlar asosida yondashishi mumkin. Lekin bundan oldin transformatsiya reja, jarayon va bosqichlarini aniqlab olish lozim. Bizning fikrimizcha, bu jarayonni 4 ta asosiy bosqichga bo‘lishimiz mumkin:

1-bosqich. Tayyorgarlik:

- 1) BHXS hisobotining barcha talablarini o‘rganib chiqish;
- 2) BHMS va BHXS bo‘yicha farqlarni solishtirib chiqish;
- 3) MHXS (IFRS) 1 "BHXSni birinchi marta qo‘llash" talablarini o‘rganib chiqish;

4) BHXS bo‘yicha hisob siyosatini ishlab chiqish.

2-bosqich. Bevosita transformatsiya qilish:

- 1) BHMS va BHXS talablari asosida tuzilgan va to‘g‘rilangan hisob siyosatlarini qiyosiy tahlil qilish;

2) transformatsiya jarayoni uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish;

3) ishchi hujjatlarni tayyorlash va hisobot tarkibiy qismlarini tanlash;

4) to‘g‘rilash va qayta guruhlashtirish;

5) dastlabki balansni tayyorlash;

3-bosqich. Transformatsiya qilish jarayonini yakunlash:

- 1) buxgalteriya balansi va foyda yoki zarar hamda boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash;

2) kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot va izohlar hamda tushuntirishlarni tayyorlash;

4-bosqich. Transformatsiyadan keyingi jarayon:

- 1) hisobotlarga qo‘shimcha bo‘lim yoki qismlarni kiritish;
- 2) hisobotlardagi ko‘rsatkichlarni inflyatsiya hisobi bo‘yicha hisoblash;
- 3) hisobotdagi ko‘rsatkichlarni chet el valyutasiga (investorlar talabiga asoslangan valyutaga) o‘tkazish.

Moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishdan oldin milliy standartlar va xalqaro standartlar bo‘yicha hisobotlar tartibini solishtirib chiqamiz. Quyidagi 1-jadvalda milliy va xalqaro moliyaviy hisobotlar tarkibining farqli jihatlari keltirilgan.

1-jadval

Moliyaviy hisobotlarning milliy va xalqaro tarkibining qiyosiy jadvali

Buxgalteriya hisobi milliy standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobotlar tarkibi	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobotlar tarkibi
Buxgalteriya balansi – 1-shakl	Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot
Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot – 2-shakl	Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot
Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot – 4-shakl	Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot
Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot – 5-shakl	Kapital o‘zgarishi tarkibi to‘g‘risidagi hisobot
Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar	Hisob siyosatiga izoh va boshqa ma’lumotlarni tushuntirish

Hozirgi kunda moliyaviy hisobotni xalqaro standart asosida transformatsiya qilishning 2 ta varianti mavjud bo‘lib, birinchi variant inflyatsiya nuqtayi nazaridan, ikkinchi variant valyuta hisobi bo‘yicha hisoblanadi [6]. Inflyatsiyaga asoslangan holda 29-sonli "Giperinflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot" nomli xalqaro standartga asosan amalga oshiriladi.

Moliyaviy hisobot inflyatsiyani hisobga olgan holda pul mablag‘lari ko‘rinishida tuzilishi zarur. Inflyatsiya usulining asosiy tomonlaridan biri pul birligi va uning vaqt bo‘yicha o‘zgarishida xarid qilish qobiliyatining bo‘lishi hisoblanadi. Bunda faqat iste’mol narxi o‘sishi indeksi ifodasi bo‘lgan umumiy bahoning o‘zgarish yo‘nalishi hisobga olinadi.

Bundan kelib chiqib, hisobot umumiy indeks bahosi milliy valyutada transformatsiya qilinishi, hisobot tuzilishi sanasiga qayta guruhlanib, chet el valyutasiga o‘tkazilishi lozim.

Transformatsiya jarayonining ikkinchi varianti valyutaga asoslangan yo‘l hisoblanadi. Bu variantdan foydalanish umumiy ishonchli baho indeksidan foydalanish imkoni bo‘lmaganda, 29-sonli BHXS (17-band)da ham tavsiya etilganidek, hisobotni valyuta kursi almashinuv harakatiga asoslangan va barqaror bo‘lgan valyutada baholash zarur. Bu holatda transformatsiya hisobotini tuzishda 21-sonli "Valyuta kurslaridagi o‘zgarishlarning ta’sirlari" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartidan foydalanish zarur hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, transformatsiya variantlaridan birinchi variantni tanlaymiz. Transformatsiya jadvali tarkibi bo‘yicha biz "Finaudit-konsalting" auditorlik firmasi direktori I.A.Dimovanning [7] tavsiyalariga qo‘shilgan holda transformatsiya jadvalini tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jadval tarkibida quyidagi o‘zgartirish bo‘yicha ustunlar tashkil etiladi:

texnik tuzatishlar;

klassifikatsiya bo‘yicha tuzatishlar;

pul bilan bog‘liq bo‘lmagan indekslar bo‘yicha tuzatishlar;

diskont bo‘yicha tuzatishlar;

taqdim etish bo‘yicha tuzatishlar.

Unga ko‘ra transformatsiya jarayonida bevosita aktivlar va majburiyatlarni balans satrlari ketma-ketligida misollar ko‘rib chiqamiz.

Transformatsiya qilinayotganda investor uchun bu asosiy vositalar mamlakatimizda foydalaniladigan muhit va sharoitlardan kelib chiqib baholanishi, ya’ni bu asosiy vositani foydalanish joyi o‘zgarmaydigan bo‘lsa, milliy qonunchilik asosida qayta baholash o‘zgarmasdan qolishi lozim. Lekin shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, agar biz moliyaviy hisobotni yil boshiga o‘tgan davr bo‘yicha tuzadigan bo‘lsak, unda qayta baholash bosqichini amalga oshirishimiz lozim.

Asosiy vositalarni baholash va ularni BHXS ga asoslangan holda hisobga olishdan keyin quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bajariladi:

Debet Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalar

Debet Mashina va asbob-uskunalar

Debet Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi

Debet Transport vositalari

Kredit Qayta baholash bo'yicha zahira

Kredit Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning amortizatsiyasi

Kredit Mashina va uskunalar amortizatsiyasi

Kredit Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi

Kredit Transport vositalari amortizatsiyasi

Xususiyl kapitaldagi qayta baholash natijasi summasi transformatsiya jarayoni oxirida taqsimlanmagan foydaga o'tkaziladi. Xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqib, agar hisobga olishda uskuna (stanok) butunligicha milliy qonunchiligimiz bo'yicha hisobga olingan bo'lsa, xalqaro standart talablaridan kelib chiqib stanok va uning motori alohida (xizmat qilish muddatlaridan kelib chiqib) hisobga olinadi.

Qo'shma korxona tomonidan shartnoma asosida uskuna lizingga olingan bo'lsa, olingan lizing lizingga oluvchining balansida qayd etiladi. So'ngra quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi beriladi.

Debet Mashina va uskunalar

Debet Hisobot davri taqsimlanmagan foydasi

Kredit Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar. Moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlar

Kredit Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar. Moliyaviy lizing bo'yicha majburiyat

Kredit Mashina va uskunalar amortizatsiyasi

Shuningdek, agar yuqoridagi buxgalteriya o'tkazmasida zarar mavjud bo'lsa, u hisobot davri taqsimlanmagan foydasiga o'tkaziladi.

Nomoddiy aktivlar sotib olingan va kirim qilingan davri bir necha yil oldingi hisobot davriga to'g'ri kelgani uchun hamda aksiyalarni pulsiz indeks bo'yicha hisoblab chiqish lozim.

Investitsiyalar bo'limi bo'yicha baholash muddatidan kelib chiqib har xil baholanadi. Agar qisqa muddatli investitsiya va qimmatli qog'oz bo'lsa, bozor

bahosida hisobga olinadi, agar uzoq muddatli bo'lsa, investitsiya va qimmatli qog'ozlarni baholash dastlabki kirimida tanlab olingan usuli bo'yicha hisobga olinadi, shu jumladan investitsiyalarda hisobga olingan usuliga qarab diskont hisobini ham amalga oshirish lozim (BHXS-28 "Qaram tadbirkorlik subektlaridagi va qo'shma korxonalaridagi investitsiyalar," BHXS-39 "Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash," BHXS-40 "Investitsion mulk" standartlariga asoslangan holda). Agar investitsiyaning haqiqiy summasi o'rtasida farq bo'lsa, bu summa xarajat sifatida tan olinadi va bu foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning boshqa operatsion xarajatlar satriga olib boriladi.

Debet Taqsimlanmagan foyda

Kredit Investitsiyaga xarajatlar .

Hisobot kategoriyalarida bo'lgan qisqartirishlar tufayli tugallanmagan ishlab chiqarishga bo'lgan xarajatlar tovar-moddiy zahiralariga qo'shib olinadi.

Debet Tovar-moddiy zahiralar

Kredit Tugallanmagan ishlab chiqarish

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot shaklida boshqaruv xarajatlari qatorida aks ettiriladi.

Balansning 090 satridagi o'rnatiladigan asbob-uskunalar satri ham balans satrini qisqartirish maqsadida tovar moddiy zaxiralar satriga qo'shib yoziladi.

Balansning tovar moddiy zahiralariga tegishli 150, 160, 170 va 180 satrlari transformatsiya qilish jarayoni kuniga nisbatan qiymati aniqlanib, ularning umumiy summalari tovar-moddiy zahira satrida aks ettiriladi.

Balans satrining 190 va 200 satri kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar summalari hisobot davrining taqsimlanmagan foydasiga xarajat sifatida olib boriladi va sarflanish jihatidan kelib chiqib foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning xarajatlariga kiritiladi.

Debitorlik qarzlari va kreditorlik qarzlari baholashda aynan hisobot taqdim etish kuniga nisbatan (muddatidan kelib chiqqan holda) inflyatsiya darajasini inobatga olgan holda hisoblanadi. Shuningdek, debitorlik qarzlari hisobot formasining ajratilgan satrida barcha debitorlik qarzlari va olinadigan ssuda va

zayomlar satri yo‘q bo‘lgani uchun qo‘shib hisoblanadi hamda kreditorlik qarzlariga ham barcha kreditorlik qarzlari va to‘lanadigan ssuda bo‘yicha qarzlar va zayomlar qo‘shib hisoblanadi.

Pul mablag‘lari, pul ekvivalentlari, kassa va boshqa pul mablag‘lari kategoriyalari qo‘shib olinadi.

Ustav kapitali summasi tashkil etilishi bilan bog‘liq va ro‘yxatdan o‘tkazilgan asosli hujjat sababli o‘zgartirish kiritilmaydi. Shuningdek, o‘z mablag‘lari ko‘rsatkichlari bo‘lgan qo‘shilgan kapital, zahira kapitali, maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zahiralar taqsimlanmagan foydaga o‘tkaziladi.

Debet Qo‘shilgan kapital

Debet Rezerv kapitali

Kredit Hisobot davri taqsimlanmagan foydasi

Balansda kategoriyalar sonini kamaytirish uchun "Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga uzoq muddatli qarz", "Ajratilgan bo‘linmalarga uzoq muddatli qarz", "Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz", "Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar", "Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar", "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar", "Uzoq muddatli qarzlar" satrlari transformatsiya qilish jarayoni vaqtida inflyatsiya darajasini inobatga olib "Boshqa uzoq muddatli qarzlar" ga qo‘shib yoziladi.

Transformatsiya qilish balansi moddalari ketma-ketligida amalga oshirildi. Oxirgi bosqichlardan biri, ya‘ni ularni xalqaro standart bo‘yicha 1-shaklga mos keladigan formani shakllantirish hisoblanadi.

010 satrda joylashgan asosiy vositalar satriga alohida to‘xtaladigan bo‘lsak, uning ta‘rifi 5-sonli "Asosiy vositalar" BHMS bo‘yicha "asosiy vositalar deganda bir yildan uzoq muddat davomida foydalaniladigan hamda bir komplekti eng kam ish haqining ellik barobaridan kam bo‘lmagan asosiy vositalar nazarda tutiladi". Xalqaro standart talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, agar 010 satrda joylashgan asosiy vositalar foydalanishda bo‘lsa va foydalanishga yaroqli bo‘lsa, unda

foydalanish muddatidan kelib chiqib, qayta baholanib asosiy vositalar satriga qo'shib yoziladi.

O'zbekiston Respublikasidagi faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalar, boshqa xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun va BHMSlariga muvofiq moliyaviy hisobotni tuzadilar. Yuqoridagi imkoniyatlarga ega bo'lish maqsadida kompaniya moliyaviy hisobotni MHXSlar asosida tuzishi va taqdim etishini taqozo etadi. Xo'sh, shunday katta imkoniyatlarni ochib beradigan hamda kompaniyaning shaffofligini ta'minlaydigan MHXSlari asosida moliyaviy hisobotni tuzish qanday amalga oshiriladi va unga qanday erishish mumkin? Buning ikkita tan olingan yo'li bor:

Ikkala yo'lda ham bitta talab mavjud: BHMSlari va MHXSlarini chuqur bilish, ularni qo'llay olishda amaliy kompetensiyaga ega bo'lish.

Birinchi yo'l eng ko'p qo'llaniladigan, kam xarajatli va nisbatan murakkablik darajasi past. Shuni ta'kidlash lozimki, moliyaviy hisobot transformatsiyasining tartib va qoidalarini belgilaydigan MHXSlari mavjud emas. Shu bois, har bir korxona o'zining hisob siyosatida transformatsiya asoslarini mustaqil ishlab chiqishi lozim. Lekin, bugungi kunda mamlakat miqyosida transformatsiyaning metodologik masalalariga umumiy yondashuvning ishlab chiqilmaganligi buxgalterlar va auditorlar oldida qiyinchiliklar, ayrim chetlanishlar va xatolarga yo'l qo'yilishiga olib kelmoqda. Ushbu holatlarga barham berish maqsadida transformatsiyaning umumiy yondashuvlarini ishlab chiqish, to'plangan tajribalarni umumlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Transformatsiya jarayonining asosiy muhim qoidalari:


MHXSlari bo'yicha hisob yuritish har bir kompaniyaning mustaqil hal qiladigan ishi, uning zarurligini va unga o'tishni mustaqil belgilaydi;

MHXSlari majburiy emas, ushbu hujjat faqat harakat qilishga yo'l-yo'riq beradi;

MHXSlari bo'yicha hisob yuritishda iqtisodiy mazmunning shakldan ustunligi amal qiladi;

MHXSlarida adolatli baholashga ustuvor ahamiyat qaratadi;

MHXS'lari bo'yicha hisob yuritish usulini (transformatsiya yoki parallel hisob yuritish) tanlash kompaniyaning ichki ishi;
transformatsiyaning yagona algoritmi va ketma-ketligi yo'q;
transformatsiyaga har bir holatda individual yondashiladi;



1-rasm. Moliyaviy hisobot transformatsiya bosqichlari.

transformatsiya murakkab jarayon, professional yondashuvni talab qiladi;
transformatsiyaning metodikasi va bosqichlari mustaqil belgilanadi;
eklassifikatsiya, qayta baholash, korrektirovka provodkalari
transformatsiyaning asosiy usullaridir;

MHXS'larga o'tishda transformatsiya usulini qo'llash birdan 100%lik natijani va xatolardan xoli bo'lgan moliyaviy hisobotni bermaydi. Chunki, MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot juda ko'plab omillar hisobidan shakllanadi. Ularni birinchi urinishdayoq to'liq qamrab olish juda qiyin jarayon. Faqat birinchi transformatsiyada yirik xatolar bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Transformatsiya bo'yicha tajriba bosqichma-bosqich shakllanib boradi va natijada yildan-yilga transformatsiyalanadigan moliyaviy hisobotning ishonchliligi oshib boradi. Shu bois, O'zbekistondagi kompaniyalar ertaga yaxshi natija olishi uchun

MHXS asosida moliyaviy hisobot transformatsiyasini bugundan boshlashi kerak. Agar kompaniyalar bugun MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzishga zaruriyat his qilmasa, ertaga zaruriyat his qilishi albatta tayin. Shu bois, ertangi zaruriyatni qondirish uchun bugun transformatsiyani boshlashi kerak. Bizda kadr yo‘q, imkoniyat yo‘q, resurs yo‘q va shu bois zaruriyat ham yo‘q deb o‘ylagan kompaniya katta xato qiladi.

Transformatsiya jarayonining quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, milliy standartlar bo‘yicha tayyorlangan moliyaviy hisobot komponentlari, shuningdek balans, foyda va zararlar va boshqa hisobot moddalarining kengaytmalari aks ettirilgan analitik hisob ma’lumotlari, zarur bo‘lsa, boshlang‘ich hujjatlarni tayyorlash lozim.

Ikkinchidan, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital elementlarini qayta tasniflash, qaytadan baholash o‘tkazish kerak. Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda ham har bir tegishli moddani xalqaro standartlarga mos holda qayta tasniflash va baholash zarur. Shuningdek, boshqa hisobot moddalarini ham birma-bir xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish choralarini ishlab chiqish lozim.

Uchinchidan, MHXSlari darajasiga yetkazish uchun tegishli tuzatishlar kiritish, qo‘shimcha provodkalar jadvalini ishlab chiqish kerak.

To‘rtinchidan, tegishli tuzatishlar buxgalteriya provodkalari yordamida kiritilgandan so‘ng MHXSlari talablariga muvofiq keladigan hisobotni tuzish lozim.

Beshinchidan, MHXSlariga o‘tishda atamalardan to‘g‘ri foydalanish muhim ahamiyatga ega. Milliy standartlar asosida tuzilgan hisobotlardagi atamalar, ko‘rsatkichlarning nomlanishi, ularning qisqartmalarini xalqaro standartlarga mos keladigan atamalarga o‘tkazish zarur. Agar ko‘rsatkich qayta guruhlash va baholash asosida qiymati xalqaro standartlarga muvofiq kelsa-da, uning nomlanishi mos bo‘lmasa, uni o‘qish qiyinlashadi, chalkashliklarga olib keladi. Shu bois, atamalar tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish lozim bo‘ladi.

1. Tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish bosqichi. Ushbu bosqichda loyiha, rejalashtirish va tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Bu bosqichda amalga oshirilgan ishlar sifati ko'p jihatdan keyingi bosqichlarning sifatli hamda transformatsiya natijalarining MHXSlari talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu bosqichda amalga oshiriladigan ishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

MHXSlariga o'tish-transformatsiya sanasini belgilash. Masalan, kompaniya 2025-yil MHXSlari asosida moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirsa, taqqoslama ma'lumotlarni vujudga keltirish uchun 2024-yil 31-dekabr holatida transformatsiyani boshlaydi va bu o'tish sanasi hisoblanadi;

MHXS bo'yicha hisob siyosatini ishlab chiqish. 1-son MHHS "MHXSlarini birinchi marta qo'llash" standarti talablarini bajarish. Bu ishlar juda katta professional yondashuvni talab etadi;

MHXSlari bo'yicha ishchi schyotlar rejasini tuzish;

ko'rsatkichlarning nomlanishi, atamalarning xalqaro standartlarga muvofiq keladigan glossariysini yaratish;

transformatsiya modelini, formulalarini, protsedurasini, ketma-ketligini, transformatsion jadval va to'g'irlovchi provodkalar loyihalarini ishlab chiqish;

konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish talab qilinadigan hollarda kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimiga kiruvchi sho'ba, assotsiatsiyalashgan kompaniyalar, bog'liq tomonlarini aniqlash. Ularning hisobot tizimlari va konsolidatsiya usullarini xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash;

moliyaviy hisobot taqdim qilinadigan valyutani belgilab olish (O'zbekiston so'mi, AQSH dollari, YEVIRO yoki boshqa davlat valyuta birligi);

mamlakatda inflyatsiya jarayonini kuzatish, indekslarini aniqlash, statistik ma'lumotlarni to'plash;

kompaniyada intiluvchan, yosh oliy ma'lumotli buxgalterlarning MHXSlari bo'yicha o'qishi va malaka oshirishini tashkil etish, Toshkent yoki xorijiy mamlakatlarga MHXSlarini o'rganish kurslariga yuborish, SAR va CIPA sertifikatlarini olishini ta'minlash;

MHXSlari bo'yicha maxsus dasturlarni sotib olish va o'rnatish;

Kompaniya MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotini tuzishga tayyorgarlik ko'rishda MHXSlari bo'yicha hisob siyosatini aniqlab olishi shart. Hisob siyosatini ishlab chiqishda kompaniya barcha standartlar va ularga berilgan sharhlarning talablariga rioya etishi lozim.

Kompaniya moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni shakllantirishda 1-son MHXS "MHXSlarini birinchi marta qo'llash" standartiga muvofiq quyidagi tuzatishlarni amalga oshirishi shart:

a) MHXSlariga muvofiq holda tan olinadigan barcha aktiv va majburiyatlarni tan olish kerak;

b) MHXSlariga muvofiq holda tan olish ko'zda tutilmagan moddalarni aktiv va majburiyat sifatida tan olmaslik kerak;

d) MHXSlari qoidalariga muvofiq holda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aktivlar, majburiyatlar va kapital moddalarini qayta tasniflash;

f) MHXSlariga muvofiq holda aktiv va majburiyatlarni baholashni amalga oshirish.

Transformatsiya jarayoni protsedurasini amalga oshirish bosqichi.

Bu asosiy bosqich bo'lib, unda barcha tayyorgarlik ishlaridan keyin farqlar aniqlanadi, korrektirovka buxgalteriya yozuvlari tuziladi, ishchi transformatsion jadvallar amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda real amalga oshiriladigan ishlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

transformatsiya uchun axborot yig'ish;

transformatsiya bazasi sifatida kiritiladigan qoldiqlarni hisoblash, transformatsiyalanadigan boshlang'ich balans va boshqa hisobotlarni tayyorlash;

baholanadigan aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlar hamda transformatsiyalanadigan boshqa moddalarning ro'yxati va tarkibini aniqlab chiqish kerak, ayrim hollarda milliy standartlar bo'yicha hisobda aks ettirilmagan bo'lsa ham, MHXS bo'yicha hisobga qabul qilinishi shart;

tuzatishlar (korrektirovka) kiritish jabhalarini aniqlash;

moliyaviy hisobotning komponentlari, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital o'zgarishi hamda pul mablag'lari

to'g'risidagi hisobot, izohlar va tushuntirishlarning MHXSlarga muvofiq formatini ishlab chiqish;

hisob obyektlarini MHXSlariga muvofiq qayta klassifikatsiyasini (reklassifikatsiya), qayta guruhlashni amalga oshirish;

hisob obyektlarini kompaniyada MHXS asosida ishlab chiqilgan hisob siyosatida ko'zda tutilgan qoidalar, tamoyil va usullar asosida qayta baholashni amalga oshirish, MHXS va BHMSlar bo'yicha tan olish va baholash o'rtasidagi farqlar summasini aniqlash;

transformatsiya yozuvlarini tayyorlash, korrektirovka provodkalarini tuzish va shu hujjatlar asosida ishchi transformatsion jadvalni tuzish;

inflyatsiya jarayonini hisobga olgan holda ko'rsatkichlarga tuzatishlar kiritish va uni ishchi transformatsion jadvalda aks ettirish;

Natijaviy bosqich. Tuzatishlar amalga oshirilgandan so'ng MHXSlariga muvofiq moliyaviy hisobot tuziladi va taqdim etiladi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlarni bajarish maqsadga muvofiq:

MHXS asosida boshlang'ich buxgalteriya balansini tuzish;

MHXS formatidagi buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital harakati to'g'risidagi hisobot, pul oqimi to'g'risidagi hisobot, izohlar va tushuntirishlarni tayyorlash;

MHXSlarga muvofiq tuzilgan hisobotlarni xorijiy valyutaga o'girish;

MHXS'larni axborot foydalanuvchilarga taqdim etish;

Transformatsiya usuli o'zining afzallik va kamchiliklariga ega.

Transformatsiya usulining afzalliklari:

parallel hisob yuritishga nisbatan kam xarajatli va tejamkor hisob tizimi hisoblanadi;

hisob yuritishda vaqt tejaladi;

hisob yuritish jarayoni parallel hisob yuritishga nisbatan ancha sodda, agar bir marta yaxshi jarayon ishlab chiqilsa, ma'lumotlarga ishlov berishda qiyinchiliklar bo'lmaydi, ma'lumotlarning ishonchliligiga erishish mumkin;

ushbu usulning samaradorligi o'rnatilgan jarayon, model, metod va xodimning kasbiy bilimiga bevosita bog'liqligi;

tuzatish yozuvlarining ko'rgazmaliligi, ya'ni farqlardagi aniq xulosalarni chiqarish mumkinligi;

har yili tizimni takomillashtirib borish, samaradorliroq usullarni qo'llash hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish mumkinligi, natijada bir necha yil ichida shu kompaniyaga mos mukammal tizimni shakllantirish imkoniyati yuzaga kelishi, uni nou-xau deb baholash mumkinligi.

Transformatsiya usulining kamchiliklari:

xato qilish xavfi yuqori, ma'lumotlarni jiddiy qalbakilashtirish ehtimoli mavjudligi;

subyektiv yondashuv, subyektiv baholashga yo'l qo'yilishi mumkin;

faqat hisobotdagi ma'lumotlar transformatsiyalanishi bilan cheklanishi, transformatsiya oraliq jamlanma axborotlar va boshlang'ich hujjatlardagi ma'lumotlarga yetib bormaydi;

hisobning operativligi sust;

BHMSlari bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotga bog'liqligi mavjud. U tuzilmasa MHXSlari bo'yicha hisobotni tuzib bo'lmaydi.

BHMSlari bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotda xatoliklar va kamchiliklar mavjud bo'lsa, u albatta transformatsiyalangan hisobotga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi;

vaqtni yo'qotish ehtimoli mavjud. Chunki BHMSlari asosida moliyaviy hisobot tuzilgandan keyin bu hisobot tuziladi. Bu ancha vaqt talab etadi;

bir kompaniyada ishlab chiqilgan transformatsiya protsedurasi va metodlarini to'laligicha boshqa kompaniyaga qo'llab bo'lmaydi. Har bir kompaniya o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

boshlang'ich qiymat, operatsiya yuz bergan vaqtdagi valyuta kursi, haqiqiy tannarx kabi operatsiya yuz bergan paytda qo'llaniladigan usullardan foydalanish imkoniyati yo'qligi, natijada o'rtacha miqdordan foydalaniladi. Bu esa haqiqiy qiymatdan chetlanishlarga olib kelishi mumkin.

Parallel hisob yuritish jarayonini konvensiya jarayoni ham deb ataladi. Parallel hisob yuritishni ikkita shaklda tashkil etish mumkin. Birinchisida ikkita hisob tizimi – biri BHMSlari va boshqasi MHXSlar bo'yicha alohida tizimlar tashkil etiladi. Har bir tizim o'z talablariga muvofiq ravishda moliyaviy hisobotni tayyorlaydi. Ularning xomashyosi bitta. Ikkinchi shaklda axborot texnologiyalari yordamida dasturiy ta'minot konfiguratsiyasi shunday tizimlashtiriladiki, unda kiritilgan ma'lumotlar bir vaqtning o'zida ham milliy tizimda, ham xalqaro tizimda ishlanib, milliy standartlar hamda xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotni tayyorlash imkonini beradi.

Parallel hisob tizimi afzalliklari:

ma'lumotlar ishonchli bo'ladi, MHXSlaridan og'ishish kamayadi, eng obyektiv axborotlarni olish imkoniyati tug'iladi, aniq bo'lmagan axborotlarni taqdim qilish xavfi kamayadi.

hisobning operativligi oshadi, moliyaviy hisobot tayyorlanguncha ham MHXS bo'yicha ishlov berilgan axborotlarni olish mumkin bo'ladi. Har bir obyekt bo'yicha batafsil axborot shakllanadi. Vaqt oralig'ida ham menejerlarga MHXS bo'yicha axborot berish mumkin bo'ladi;

MHXS bo'yicha yaxshi amaliyot hamda mutaxassislar shakllanadi. mutaxassislar malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

MHXSlari va BHMSlari ma'lumotlarini aniq solishtirish imkoniyatlari tug'iladi. Farqlarning sabablarini ko'rish va ularni tushunish osonlashadi;

BHMSlari bo'yicha hisob tizimidan mustaqil bo'ladi, unga bog'liqligi qolmaydi, milliy hisobot tuzilishini kutib o'tirilmaydi. Undagi ayrim xatolar bunda takrorlanmaydi.

MHXSga o'tish uchun tashqariga pul ko'chirib berish bo'lmaydi, ish o'rinlari ochiladi. Pulni o'z xodimlarimizga ishlatish imkoniyati bo'ladi;

tizim o'rnatilgandan keyin, dastlabki yillardagi xarajatlarga nisbatan keyingi yillarda ularni optimallashtirish imkoniyati bo'ladi.

Parallel hisob tizimining kamchiliklari:

uni amalga oshirish ko'p xarajatli hisoblanadi;

ko‘p vaqt sarflanadi;

kadrlar professionallasuvi qo‘shimcha xarajatlarni talab etadi, holbuki MHXS bo‘yicha ishlay oladigan mutaxassisni topish ancha murakkab hamda yuqori ish haqi to‘lash talab etiladi;

maxsus dasturlarning zarurligi, ularni sotib olish hamda ularda ishlash ko‘nikmasini shakllantirish qo‘shimcha mablag‘larni talab etadi.

Yuqoridagi tizimlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, bizning fikrimizcha, agarda kompaniyada moliyaviy imkoniyatlar to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, parallel hisobni yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bu hisob eng muhimi obyektiv axborotlarni beradi, xato qilish xavfi kam. Bundan tashqari, tizim o‘rnatilganda dastlabki yillarda ko‘proq xarajat talab etsa, tizim to‘liq ishlab ketgandan keyin xarajatlari optimallasadi, ya’ni keyingi yillarda xarajatlari kam bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрель ЎРҚ-404-сон Қонуни. Янги таҳрири. www.lex.uz.
2. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 феврал ПҚ-4611-сон Қарори <https://lex.uz/docs/4746047>
3. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Олий ўқув юртлари магистратура мутахассисликлари учун дарслик. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2020. – 555 б.
4. Норбеков Д.Э., Тўраев А.Н., Рахмонов Ш.Ш. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: ўқув қўлланма. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2019. – 332 б.
5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-sonli buyrug‘ining 1-ilovasiga asosan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida"gi Nizom.
6. Дымова И.А. Бухгалтерская отчетность и принципы ее составления в

соответствии с международными стандартами. Методика трансформации. – Москва: Современная экономика и право, 2001. – 160 с.

7. Бухгалтерская отчетность и принципы ее составления в соответствии с международными стандартами. –Москва: Современная экономика и право, 2001. – 162с.

8. <https://hbr.org/2021/04/research-joint-ventures-that-keep-evolving-perform-better>

9. <https://www.ifac.org/publications-resources/accountability-now-brochure>.

10. <http://www.ifrs.com>